



ZAMONAVIY AYOLLAR KIYIMI TASHQI SHAKLINING O'ZGARISHI

*Normuminova Oydin Abbos qizi,
Artikbayeva Nozima Mumindjanovna*

Annotatsiya

Maqolada yengil sanoatda tikuv buyumlarini ishlab chiqarish borasida dolzarb muammolar, ayollar kostyumi detallarida zamonaviy moda tendensiyasining o'zgarishiga ko'ra tashqi shaklining o'zgarishi taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kostyum, tendensiya, ayollar komplekti, unifikasiya, mexanizatsiya, avtomatlashtirish.

Yengil sanoat buyumlarini ishlab chiqarish borasida tikuvchilik buyumlari yetakchi o'rinni egallaydi. Tikuv buyumlarining sifati bugungi kundagi turli xil kiyim ishlab chiqaruvchilari orasidagi raqobat darajasida ham ichki bozor, ham tashqi bozorda dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Tikuv buyumlarini ishlab chiqarilishi yuqori darajadagi mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish bilan bog'liq bo'lib, bunda tayyorlashning yanada unifikasiyalashtirilgan texnologiyasidan foydalaniladi. Bugungi kunda iste'molchilar import mahsulotlarni afzal ko'radilar, chunki ularning mahsulotlari tashqi ko'rinish, sifati, ekspluatatsiya qilish muddati kabi asosiy talablarga javob beradi, shu bilan birga bu mahsulotlar o'zining narxining yuqoriligi bilan ajralib turadi [1].

Zamonaviy kiyim assortimenti shaklini kam o'zgaruvchanligi va iste'molchi talablariga bog'liq ravishda o'zining yetarli darajada barqarorligi bilan ajralib turadi. Ayollar qomatida shakl hosil qilish erkaklar qomatidan tubdan farq qiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki [1], ayol mijozlar uchun erkak mijozlarga nisbatan moda industriyasida yangi modellar soni ko'proq ishlab chiqarilishi aniqlandi. Ayollar kiyimlarida murakkab fazoviy shakldagi detallar mavjudligi, bu kiyim detallarida



zarur shakllarni hosil qilish va kiyim ekspluatatsiya davrida shaklbarqarorlikni saqlashini talab etadi. Shu sabab maqolada ayollar kostyumida shakl hosil qilish, shaklbarqarorlik xususiyatlari o'rganildi (1-rasm).



1-rasm. 2026 yil tendensiyasida ayollar kostyumi tashqi shakli.


Turli yoshdagi zamonaviy ayollar garderobi asosini jaketli komplekt tashkil etadi. Ayollar jaketli komplekti did, uslub va hayot tarzini, ba'zida esa ayolning yoshini aks ettiradi. Jaket eng ommaviy kiyim turlaridan hisoblanib, u turli vaqt bosqichlari, g'oyalar va dizaynerning o'ziga xosligi va milliy mentalitet jihatlarini o'zida namoyon qiladi. O'zining paydo bo'lishidan boshlab butun davr ichida bu kiyim turi detallarda va yangi gazlamalarning qo'llanilishida doimiy o'zgarib kelgan. Siluet shakli, proportsiyalar, gazlama rangi va fakturasi, yelka shakli, detallarning bo'linishi, etak, bortlarning shakli, yoqalar va cho'ntaklarga ishlov berilishi – bularning barchasi jaketning vazifasiga ko'ra ma'lum standartlar va reglamentlarga bo'ysunadi [2-3].

Yuqoridagilarni inobatga olib zamonaviy moda tendentsiyasi asosida ayollar jaketida siluet shakli va proportsiyalar asosiy detallarga nisbatan joylashuvi tahlil qilindi (2-rasm). 2019-2026 yillar oralig'ida bo'lgan dunyoning yetakchi dizaynerlarining 740 dan ortiq kolleksiyalari tahlili asosida ayollar jaketida shakllanishga ta'sir etuvchi elementlar tizimlashtirildi. (Gucci, Armani, Dior, Dolce Gabbana, Chanel).

Zamonaviy ayollar kostyumida shakl hosil qiluvchi parametrlar va ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik orqali beriladigan muayyan axborotning aks ettirilishi



ko‘rib chiqiladi. Uning shakli kostyumning tuzilishi, mohiyati va mazmunini xarakterlaydi va uslub hosil qiluvchi va shakl hosil qiluvchi xarakteristikalar va parametrlar tizimi sifatida izohlanadi. Zamonaviy jaketlar uchun keng miqyosdagi uslub xilma-xilligi xosdir [2].



2-rasm. Ayollar jaketida siluet shakliga ta'sir etuvchi elementlar

Bunda ayollar jaketi siluet shakliga ta'sir etuvchi taqilma turlari, yoqa turlari va shakli, buyum uzunligi va jaket etak qismining shakllanishi o'rganildi. Ayollar jaketida bir bortli, ikki bortli va asimmetrik bortli tugma izmali taqilmalar qo'llanilgan. Yoqa shakli kostyumlik, tik yoqa bo'lib, ko'p hollarda yoqasiz jaketlar loyihalangan. Jaket uzunligi asosan bo'ksadan tepada bo'lib, juda kam hollarda bo'ksadan pastda namoyon bo'lgan. Jaket etak qismlari shakldor tarzda loyihalangan.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, kiyim detallarida fazoviy shakl hosil qilish usullarini tahlil qilish hamda kiyimning shakl barqarorligini ta'minlash usullarini o'rganish vazifasi belgilandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Artikbayeva N.M. Kiyim detallari shaklbarqarorligini oshirish texnologiyasini takomillashtirish: t.f.f.d. PhD: -TTYSI.Toshkent, 2024.-187 b.



2.Н.М. Артикбаева, И.Г. Шин, С.Ш. Ташпулатов, И.В. Черунова, Н. Бралина
Оценка напряженного состояния при формообразовании объемных участков
деталей одежды потоком сжатого воздуха //Иванова-2019 г. № 5 (383) 2019.-
С181-186.

3.<https://www.buro247.ru/fashion/things/28-sep-2026-giorgio-armani-spring-summer-2026.html>.